

IBN SINO MARKAZIY KO'CHASIDAGI MAVJUD KAMCHILIKLAR O'RGANILDI.



IBN SINO MARKAZIY KO'CHASIDAGI MAVJUD KAMCHILIKLAR O'RGANILDI.

Bugun shahar hokimi O'ktam To'rayev boshchiligida sektor rahbarlari hamda aloqador mas'ullar birgalikda piyoda yurib 8 kilometrga yaqin masofada bo'lgan Ibn Sino ko'chasidagi obodonlashtirish holati, yo'llar ta'miri, yo'laklar qurilishi, yo'l yoqalaridagi maydonlarda sug'orish tizimlarini o'rnatish ishlarining borishi ko'zdan kechirildi.

Shahar rahbari o'rganish davomida markaziy ko'chadagi yakunlanmagan yo'llar ta'miri va yo'laklar qurilishiga mas'ul bo'lgan "Transyo'lqurilish" Surxon magistral MCHJ va Surxondaryo ko'priklardan foydalanish unitar korxonasi mutasaddilariga aniqlangan kamchiliklarni qisqa muddatda bartaraf etish yuzasidan tegishli vazifalar

yukladi.

Shuningdek, obodonlashtirish ishlarini tizimli davom ettirish, hududni tartibga keltirish va yo'l yoqasidagi shaharsozlik normalariga mos bo'lgan noqonuniy qurilishlarni o'zlashtirib chiqib, muammoni bartaraf etish bo'yicha kadastrlar va shahar qurilish boshqarmasi hamda aloqador mas'ul rahbarlarga tegishli topshiriqlar berildi.





Image not found or type unknown

